



TARJIMA JARAYONIDA “PAST PERFECT CONTINUOUS” VA “FUTURE IN THE PAST” ZAMONLARINING EKVIVALENTLIK MASALALARI

Ismonaliyev Jamoliddin Qo‘ldashaliyevich

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

[ismonaliyevjamoliddin@gmail.com](mailto:ismonaliyevjamoliddin@gmail.com)

ORCID ID: 0009-0006-7022-5055

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada *Past Perfect Continuous* hamda *Future in the Past* kabi murakkab tizimli zamonlar tahlil qilingan. Tahlil mobaynida bu zamonlarning funksional va semantik xususiyatlari o‘rganilib, ularning o‘zbek tilidagi ekvivalentini aniqlash maqsad qilingan.

**Kalit so‘zlar:** *fe‘l, zamon, ekvivalentlik, aspekt, anteriorlik, durativlik*

**Abstract:** This article analyzes complex tenses such as the *Past Perfect Continuous* and the *Future in the Past*. The study examines the functional and semantic characteristics of these tenses and aims to identify their equivalents in the Uzbek language.

**Key words:** *verb, tense, equivalence, aspect, anteriority, durativity*

O‘zbek va ingliz tillaridagi aksar zamonlarning ekvivalenti aniqlangan, ammo ingliz tilidagi *Past Perfect Continuous* va *Future in the Past* zamonlarining aniq ekvivalenti mavjud emas.

*Past Perfect Continuous* (O‘tgan tugallangan davomli) zamonining morfologik va semantik xususiyatlarini atroflicha tahlil qilib, o‘zbek tilida bu zamonga aynan morfologik jihatdan mos keluvchi zamon mavjud emas, bu zamonning grammatik xususiyatlari yoki mazmun va mohiyati o‘zbek tilidagi aniq bir zamonning ayni xususiyatlariga mos emas degan xulosaga keldik, ammo unga yaqin bo‘lgan ifodalarni ochib berishga harakat qilamiz.

Tahlilni metodologik jihatdan asoslash uchun zamon (tense) va aspekt (aspect) munosabatlarini izohlovchi H.Reyksenbaxning klassik uch nuqtali nazariyasiga<sup>1</sup> tayanamiz. Bu nazariyaga ko‘ra, har qanday fe‘l shakli uch vaqt nuqtasining o‘zaro joylashuvi orqali tavsiflanadi: nutq payti (S – *speech time*), tayanch payti (R – *reference time*) va hodisa payti (E – *event time*). Mazkur model bizni qiziqtirayotgan ikki zamonning o‘zbek tili uchun nega murakkab ekanligini aniq ko‘rsatib beradi.

*Past Perfect Continuous* zamonida hodisa (E) tayanch nuqtasidan (R) oldin boshlanib, unga qadar davom etadi; tayanch nuqtasi esa nutq paytidan (S) oldin keladi (sxematik tarzda:  $E \rightarrow R \rightarrow S$ , bunda E davomiy va R gacha cho‘zilgan). Bu fe‘l zamon bir vaqtning o‘zida **anteriorlik** (R dan oldinlik) va **davomlilik**

<sup>1</sup>Reichenbach H. Elements of Symbolic Logic. – New York: Macmillan, 1947. – P. 287–298.



(durativlik) ma'nolarini birlashtiradi. B.Komri ta'kidlaganidek,<sup>2</sup> perfekt (tugallanganlik) va progressiv (davomlilik) aspektlari ingliz tilida mustaqil grammatik ko'rsatkichlarga ega bo'lib, ularning birikuvi alohida ma'no hosil qiladi. O'zbek tilida esa **-gan edi** (uzoq o'tgan) anteriorlikni, **-(a)yotgan edi** (o'tgan davom) esa davomlilikni ifodalaydi, biroq bu ikki ma'noni bitta sintetik forma sifatida birlashtiruvchi vosita mavjud emas.

*Past Perfect Continuous* zamonida harakat o'tmishda sodir bo'lgan boshqa bir hodisadan oldin ma'lum vaqt davom etgan bo'ladi. Bu zamonning kesimi *had been doing* har doim bu qonuniyatni tushunish uchun yordam beradi. O'zbek tilida *had been doing* fe'l shakli ham *tugallanmagan o'tgan zamonda* duch kelganimiz - **yotgan edi** hamda uzoq o'tgan zamon hosil qilishda qo'llangan **-gan edi** fe'l formasi bilan ifoda etiladi. Shunga qaramay, *Past Perfect Continuous* zamonini mazmun – mohiyatini ochib berish uchun **-yotgan edi** va **-gan edi** fe'l formasidan boshqa vositalar, vaqtni ko'rsatib beruvchi ifodalar, kontekst kerak bo'ladi.

*Eric finally came at six o'clock. I had been waiting for him since four-thirty*<sup>3</sup>. (Erik nihoyat soat 6 da keldi. Men uni 4.30 dan beri kutayotgan edim.)

Bu misoldagi *had been waiting*, gapning kesimi, *kutayotgan edim* deb tarjima qilinadi. Kutish jarayoni Erik kelishidan oldin davom etganligi kontekstdan, ko'rsatilgan soatlar va sarflangan muddatdan anglashiladi.

*Past Perfect Continuous* zamonining ikkinchi xususiyati sarflangan muddat yoki davomiylikka urg'u bermasdan, shunchaki shu harakatni sodir bo'lganligiga e'tibor qaratadi. *Past Perfect Continuous* zamonining bu xususiyati *Past Perfect Simple* zamonidan farqli ravishda tugallanganlikni, natijani ko'rsatmaydi, balki harakatni amalga oshgani, harakatning o'ziga urg'u beradi. Bu vazifada qo'llanganida *Past Perfect Continuous* zamonida keltirilgan fe'l **-gan edi** fe'l formasiga ham mos kelib qoladi:

*I went to Jane's house after the funeral. Her eyes were red because she had been crying*<sup>4</sup>. (Men dafn marosimidan keyin Jeynning uyiga bordim. Uning ko'zlari qizargan edi, chunki u yig'lagan edi.)

Bu misoldagi kesimni, *had been crying*, *yig'layongan edi* deb tarjima qilish to'g'ri bo'lmas edi, chunki bu vaziyatda *Past Perfect Continuous* harakatni avval sodir bo'lganini ko'rsatish uchun qo'llangan, davomlilikni emas.

O'tgan kelasi zamon (*Future in the Past*) o'zbek tiliga tarjima qilishda yanada jiddiyroq muammo yuzaga keltiradi, chunki o'zbek tilida bu zamonning grammatik ekvivalenti shakllanmagan.

<sup>2</sup>Comrie B. Aspect: An Introduction to the Study of Verbal Aspect and Related Problems. – Cambridge: Cambridge University Press, 1976; Comrie B. Tense. – Cambridge: Cambridge University Press, 1985.

<sup>3</sup> Schrampeer B.A. Understanding and using English grammar.–The USA: Longman, 2002. –P.47.

<sup>4</sup> Schrampeer B.A. Understanding and using English grammar.–The USA: Longman, 2002. –P.47.



Ingliz tilida ham qo'llanishi faol bo'lmagan *Future in the Past* zamonlariga o'zbek tilida muvofiq keluvchi zamonlarning mavjud emasligi har ikki tilni o'zaro o'rganuvchilar uchun hamda tarjimashunoslik sohasida muammolarni yuzaga keltiradi.

Bunday fe'l zamonlari ayrim ergash gapli qo'shma gaplarning ergash gaplarida uchratiladi. Agar bosh gapdagi harakat ergash gapdagi harakatdan avval bo'lsa, *o'tgan kelasi zamon* deb atalmish forma ishlatiladi<sup>5</sup>.

H.Reyksenbaxning klassik uch nuqtali nazariyasiga ko'ra *o'tgan kelasi zamonda* hodisa (E) tayanch nuqtasidan (R) oldin va nutq paytidan (S) keyin sodir bo'ladi (sxematik tarzda:  $S \rightarrow E \rightarrow R$ ).

*O'tgan kelasi zamonlarning* barchasida bitta umumiylik mavjud, ya'ni ularda o'tmishga nisbatan kelajak ifodalanadi. *O'tgan kelasi zamonlar* boshqa zamonlarga nisbatan ancha kam uchratiladi, ammo ularni fe'l zamonlari sifatida e'tibordan chetda qoldira olmaymiz.

*They **did not know** when the Rebellion predicted by Major **would take place**, they **had** no reason for thinking that it **would be** within their own lifetime, but they saw clearly that it was their duty to prepare for it.* (George Orwell, "Animal farm", 1946, p.13.)

Bu misolda **would take place** bosh gapdagi **did not know** formasiga, **would be** esa, ikkinchi qo'shma gapning **had** formasiga nisbatan kelajakni ifodalab kelmoqda.

*Throughout the spring and summer they worked a sixty-hour week, and in August Napoleon **announced** that there **would be** work on Sunday afternoons as well.* (George Orwell, "Animal farm", 1946, p.51.)

Bu misolda ham to'ldiruvchi ergash gapdagi **would be** bosh gapdagi **announced** fe'lga nisbatan kelajakda amalga oshishini tushunishimiz mumkin. Umuman olganda har ikki misolda ham kelasi zamon o'tmishga nisbatan aks etishini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilish mumkin-ki, ingliz tilidagi *Future in the Past* (*o'tgan kelasi*) zamoniga o'zbek tilida morfologik ekvivalentlik mavjud emas. Shuningdek, o'zbek tilida *Past perfect continuous* zamonining ham anteriorlik (oldingilik), ham durativlik (davomlilik) xususiyatlarini birlashtiruvchi zamon mavjud emas. Shunday ekan, ularni tarjima qilishda kontekstual yondashuv, semantik ekvivalentlikka, grammatik transformatsiyaga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Reichenbach H. Elements of Symbolic Logic. – New York: Macmillan, 1947.

<sup>5</sup> Бўронов Ж., Хошимов Ў., Исматуллаев Х. Инглиз тили грамматикаси.—Тошкент: Ўқитувчи, 1974.—Б.178.





2. Comrie B. Aspect: An Introduction to the Study of Verbal Aspect and Related Problems. – Cambridge: Cambridge University Press, 1976;
3. Comrie B. Tense. – Cambridge: Cambridge University Press, 1985.
4. Schrampeer B.A. Understanding and using English grammar.–The USA: Longman, 2002.
5. Бўронов Ж., Ҳошимов Ў., Исматуллаев Ҳ. Инглиз тили грамматикаси.–Тошкент: Ўқитувчи, 1974.

